

**YOVUZ BAHODIRO‘G‘LINING “BUHARA YANIYOR” (XORAZM
O‘T ICHIDA) ROMANING TARJIMASIDA ASLIYAT USLUBINING
BERILISHI**

**(The translation of the original style in the translation of Yovuz
Bahodirogli’s novel "Bukhara Yaniyor" (in the fire of Khorezm))**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-388-392>

Zuhriddinov Biloliddin Xiloliddin o‘g‘li,

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti, o‘qituvchi

e-mail: Bilol9394@icloud.com

tel: +998974778979

ANNOTATSIYA

Tarixiy mavzudagi asarlarni tarjima qilishda tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘pgina so‘z va iboralarning semantik vazifalari o‘zgarib, keyinchalik ular butunlay boshqa tushunchalarni ifodalashga xizmat qila boshlashiga alohida e‘tibor qaratish lozim. Badiiy asardagi obrazni xarakterlashning asosiy vositalaridan biri portret obrazidir. Portret tasviriy san‘at va badiiy adabiyotda hayot haqiqatini bevosita aks ettiruvchi muhim omillardan biridir.

Kalit so‘zlar: tarixiy, asliyat, portret, ijodkor, tarjimon.

ABSTRACT

When translating works on historical themes, special attention should be paid to the fact that in the course of historical development, the semantic functions of many words and phrases change, and they later begin to serve to express completely different concepts. One of the main means of characterizing an image in a work of art is the portrait image. Portraiture is one of the most important factors in the visual arts and fiction to directly reflect the realities of life.

Keywords: historical, original, portrait, creative, translator.

KIRISH

Jahon adabiyoti taraqqiyotida tarixiy roman alohida o‘rin tutadi. Chunki, tarixiy voqea-hodisalarni haqqoniy, izchil hujjat va manbalar asosida tasvirlash yozuvchidan katta mahorat talab etadi. Shu bois ham, tarixchilar bilan ijodkorlarning tarixiy fakt va materiallarga munosabatlari turlicha bo‘ladi. To‘g‘ri, tarixiy makon va

zamondagi voqea-hodisalarni fakt hamda materiallar asosida sinchiklab, batafsil o‘rganish borasida tarixchi ham birlay mashaqqat chekadi, ko‘p mehnat sarflaydi. Ammo, ijodkor mehnati tarixchilikka nisbatan og‘irroq va mas‘uliyatliroqdir. Chunki, agar tarixchini, asosan, muhim tarixiy voqeaning mohiyati, mazmuni qiziqtirsa, ijodkor har bir kichik detalning haqqoniyligi borasida ham ko‘p tashvish chekadi. Tarixchi ko‘rganlarini, bilganlarini xolis, haqqoniylik bilan aks ettiradi. Ijodkor esa tarixiy faktlarga tayansa ham, baribir, asarda yangi bir olam yaratadi, bu olam ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lib, unga o‘z bahosini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ijodkorning o‘tmishga munosabati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Uning tarixiy manbalarni o‘qishi, o‘rganishi, o‘tmishning makon va zamon manzaralarini chuqur his qilishi, anglashi, idrok etishi tufayli yuzaga keladi. Tarix haqiqati badiiy asarga shundayligicha kirib kelmaydi. U yozuvchi fantaziyasi bilan to‘ldiriladi, muayyan g‘oyaviy maqsadga bo‘ysundirilishi barobarida, avvalo, ko‘z o‘ngimizda tirik odamday gavdalanishi kerak. Tarixiy hamda tarixiy mavzularga bag‘ishlangan asarlarni tarjima qilganda shunga alohida e‘tibor berish lozimki, tarixiy taraqqiyot jarayonida ko‘pchilik so‘z va iboralarning ma‘nova vazifalari o‘zgarib, ular keyingi paytlarda mutlaqo o‘zgacha tushunchalarni ifoda etish uchun xizmat qila boshlaydilar.

Tarixiy asarlardan biri taniqli turk tarixchi olimi va yozuvchi Yavuz Bahodiro‘g‘lining “Xorazm o‘t ichida” (Buhara yanıyor) romani bo‘lib, uni o‘zbek tiliga Boboxon Muhammad Sharif tarjima qilgan. “Xorazm o‘t ichida” (Buhara yanıyor) romani Buyuk Xorazmshohlar davlatining Chingizxon tarafidan qulatilishini kelajak avlodga katta saboq shaklida yetkazadi. Qudratli bir davlatning sultoni bo‘lgan Olovuddin Muhammad o‘z askarlarini to‘plaganicha, Chingizxon bilan qarshilashmasdan qochib qolib, mamlakatni tanazzulga yuz tutishiga sababchi bo‘ladi. O‘g‘li Jaloliddin, shu bilan birga roman bosh qahramoni hisoblangan qo‘mondon Temur Malikning harakatlari, Chingizxonning shavqatsizlig-u, zulmlari, buyuk davlatni uzoqni ko‘ra olmaslik sababli parchalanib ketishi romanda ochib beriladi. Ushbu roman turk xalqi orasida juda iliq kutib olinadi. Muallifning bundan tashqari ko‘plab romanlari, jumladan, “Elveda Buhara” (Alvido Xorazm), “Malazgirt’te Bir Cuma Sabahi” (Malazgirt’da bir juma tonggi), “Selaheddin Eyübi” (Salohiddin Ayyubiy) nomli asarlari mavjud va bu asarlarning barchasi tarjimon Boboxon Sharipov tomonidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan.

Ba’zan asar tarjimasini asliyat asardan ko’ra kitobxoniga ko’proq ta’sir ko’rsatishi mumkin. Obrazlilikni saqlab qolish, ta’sirchanlikni kuchaytirib, asliyat ruhini kitobxoniga yetkazish tarjimonga ulkan vazifa yuklaydi. O’rnak sifatida asardagi Turkon xonim portretiga e’tiborimizni qaratamiz:

“İlerlemiş yaşına rağmen hayli dinç kalmıştı. Yüzü bir genç kızinki kadar düzgün, ellerinin derisi gergindi. Her haliyle rahat geçmiş bir ömrün sefasını sürdüğü belli idi. Başını, gümüş simlerle işlenmiş kar gibi beyaz bir eşarp çevreliyordu. Bir ucuqii zarafetini simgelemek istercesine sağ omuzundan beline doğru sarkıtmıştı. Başının tepesinde ise, küçük fakat çok kıymetli taşlarla bezeli altın bir taç bulunuyordu” [Bahadıroğlu Y., 1998: 17]. Asliyatda muallif Turkon Xotunni go’zal, salobatli, tetik qilib tasvirlagan. Asarni o’qish jarayonida kitobxonning ko’z oldiga viqorli, ko’rkam ayol keladi. Tarjimonning vazifasi aynan mana shu obrazni o’zi tarjima qilayotgan tiliga mukammal yetkazib berish. Asar tarjimasiga e’tiborimizni qaratamiz: *“Ancha yoshni qoralab qo’rganiga qaramay, Turkon Xotun hali tetik. Yuzi yosh qizlarnikiday tarang, qo’llarining terisi yumshoq, silliq. Uning butun turish-turmushi rohatda o’tgan safoli umridan dalolat beradi. Turkon Xotunnig bo’ynida kumush bezakli qorday oppoq harir ro’mol. Ayol o’z zarofatini ko’z-koz etib, ro’molining bir uchini o’ng yelkasidan oshirib orqaga tashlagan. Turkon Xotunnig boshi ustida mo’jazgina, ammo nihoyada nodir javohirlar bilan bezatilgan oltin toj. Ustidaki qirmizi ko’ylagining uzun etagini orqada kelayotgan ikki xodima ko’tarib boradi”*[Sharif B.M., 2003: 14]. Guvohi bo’lganimizdek, tarjimon Turkon Xotun portretini asarga monand bera olgan. Turkon Xotunga xos detallarni o’zbek tilida berish uchun kerakli ifodalarni topgan. Masalan, *“dinç kalmak”*ni *“tetik”*, *“genç kızinki kadar düzgün”*so’zini berishda *“yosh qizlarnikiday tarang”* jumlasini qo’llagan. Tarixiy asarlardagi so’zlar albatta o’sha davrga to’g’ri kelishi zarur. Tarixiy asarlarning boshqa turdagi asarlardan ajratib turadigan jihatlaridan biri ham aynan shu so’zlar hisoblanadi. Tarjimon o’z ishiga mohirona yondashgan bo’lishiga qaramay, so’zlarda ba’zi kamchiliklarni kuzatiladi. Turk tilidagi *“nedime”* so’zi xonlik, beklik davrdagi xotunlar, malikalarga yordamchi sifatida nasl-nasabli ayollar orasidan tanlab olinadigan xizmatkorlar ma’nosini anglatadi. Asarning tarixiyligidan kelib chiqadigan bo’lsak, ushbu so’zni tarjimon asar davriga mos ravishda *“xodima”* emas, *“xizmatkor”* shaklida o’girganda, nazarimizda, maqsadga muvofiq bo’lar edi. Navbatdagi misol: *“Temür Melik sanki taş kesilmişti. Bacaklarını germiş, bakışlarını Kıpçak süvarilerine mihlamıştı.”*[Bahadıroğlu Y., 1998: 25]. Jumla o’zbek tiliga *“Temur Malik go’yo mixlangandek qotib qolgan. Oyoqlarini kerganicha qipchoq*

suvoriylariga termulib turibdi.” [Sharif B.M., 2003: 27] tarzida o‘girilgan. Turk tilidagi “*taş kesilmek*” iborasini mutarjim o‘zbek tilga “*mixlanib qolmoq*” tarzida o‘girib, obrazlilikni saqlab qolgan. Bu bilan oldida qo‘yilgan maqsadga to‘laqonli erishgan.

Mohir tarjimon X.Hamidov o‘zining “O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari” nomli monografiyasida mazkur romandan olingan aynan shu parchani o‘zbekcha tarjimasini tahlil qilgan: “Agar tarjimon asliyat muallifining so‘zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olsa, tarjimada ham so‘zni shunchalik ishonchli bera oladi.

“*Temür Melik Türkân Hatunun sarayındaki hali görüp Celaleddin'in azlettiğini duyunca bir an bocalamış, şaşırmış ne yapacağını, ne söyleyeceğini bilememişti. Sonra acı acı gülmüştü. Kuruyan dudaklarını diliyle ıslatmış, etrafına bir göz daha atmış*” [Bahadıroğlu Y., 1998: 28]. Tarjima nusxasi quyidagicha: “*Jaloliddinning valiahdlikdan tushirilganini bilgach, bir necha daqiqa o‘zini yo‘qotdi, sarosimaga tushdi, ne deyarini bilmadi. So‘ng achchiq kuldi. Qurigan lablarini yaladi, afrofdagilarga bir nazar tashladi:*” [Sharif B.M., 2003: 25]. Guvohi bo‘lganimizdek, mutarjim asliyatdagi vaziyat, xolatnito‘laqonli o‘zbek tilida bera olgan. Asarning o‘zbekcha tarjimasini o‘qigan kitobxon Temur Malikning qiyin va sarosimali vaziyatini bemalol ko‘z oldiga keltira oladi. Navbatdagi misolda Chingizxon portretini ko‘rib chiqamiz:

“*Atulgandi, cesurdu, kurnazdi. Yer yatağında yatar, yamalı hırka giyerdi. Askerinin yediğini yerdi. Herhangi bir teb'asından farksızdı. Bu davranışları sayesinde kendini sevdirdi. Kendi inançlarına göre dindar da sayılabilir. Sık sık yüksek bir tepeye çıkıp Gök Tanrısına yalvardığı anlatılır. Dirayetlidir*” [Bahadıroğlu Y., 1998: 74].

“*Chingiz botir, jasur, ayyor edi. U yerga to‘shalgan po‘stakda uxlar, yirtiq – yamoq cho‘pon kiyardi. Askari ne yesa u ham o‘shani yerdi. Tabaasidan farqi yo‘q edi. Bu fe‘l – huyi tufayli u muhabbat qozondi. O‘z diniga e‘tiqodli. Tez-tez baland tepalikka chiqib, Ko‘ktangriga iltijo etishi haqida gapirishadi. Zehni o‘tkir...*” [Sharif B.M., 2003: 54]. Asliyatni o‘qiganimizda ko‘z oldimizga kelgan Chingizxon portretini tarjimon juda chiroyli va barchaga tushunarli tarzda o‘giran. Masalan, “*yer yatağı*” o‘zbek tiliga “*yerga to‘shalgan po‘stak*”, “*yamalı hırka*” esa “*yirtiq – yamoq cho‘pon*” tarzida berilgan. Bundan tashqari “*dirayetli*” so‘zi “*zehni o‘tkir*” tarzida berilgan. “*Dirayetli*” so‘zi o‘zbek tilida aslida qobiliyatli, uddabiron degan ma‘nolarni anglatadi. Bu o‘rinda mutarjim ushbu so‘zni “*zehni o‘tkir*” deb emas,

balki, aynan tarjimasi hisoblangan “uddabron” yoki “qobiliyatli”, “abjir” tarzida o‘girganda ma’no to‘liq qoplangan bo‘lar edi. Yana bir misol:

“— Uzun, ama çok uzun boylu... Zaten Moğolistan'da hemen herkes uzun. O, herkesten daha da uzun. Askerleri biraz da bunun için saygı duyar. Yeşil gözlü, ama ne gözler... Pırlıl pırlıl... İçinde Cehennem ateşi yanıyor sandım. Birkaç kılık bir sakalı var. Uzun. Bazan ucunu kulağının ardına atar. Hele düşünceli olduğu zamanlar!..” [Bahadıroğlu Y., 1998: 74]. Tarjimasi quyidagicha: “Uzun bo‘yli, daroz odam. Zotan mo‘g‘ullarning ko‘pi novcha. Biroq Chingiz hammasidan novcha. Balki, shuning uchun ham askarlari ham uni hurmat qilishadi. Ko‘zlari ko‘m-ko‘k. Yana qanday ko‘z de, naq do‘zax olovi sochadi. Bir necha tukdan iborat uzun soqoli ham bor. Ba‘zan, o‘yga tolgan kezlari soqolini qulog‘inin orqasiga tashlaydi” [Sharif B.M., 2003: 55]. O‘zbek xalqida yashil rangini ko‘k rangga almashtirilishini uchratishimiz mumkin. Masalan, oddiy ko‘k choy deb ichadigan choyimiz aslida yashil rangda. Mutarjim ham o‘z tarjimasini o‘zbek tushunchalaridan kelib chiqqan holda jumladagi “yeşil gözlü” so‘zini o‘zbek tiliga “ko‘zlari ko‘m-ko‘k” shaklida o‘girgan. Bundan tashqari obrazlilikni saqlash niyatida “uzun boylu” ni “novcha, daroz” deb tarjima qilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yuqorida ko‘rib chiqqanimizdek, asar yuqori saviyada tarjima qilingan. Tarjimonning so‘z tanlashdagi mahorati romanning badiiy ta’sirchanligini yo‘qotmasligiga, balki yana-da samarador bo‘lishiga zamin yaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Bahadıroğlu Yavuz, Buhara Yanıyor, Roman. – İstanbul, 1998: (Баҳодирўғли Ё. Хоразм ўт ичида, роман, туркчадан Б. М. Шариф таржимаси. –Тошкент: Жаҳон адабиёти, 2-(3-) сон. – 2003.
2. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик – Тошкент: Фан, 2005.
3. Hamidov X. O‘zbekchadan turkchaga nasriy tarjima muammolari. Monografiya – Toshkent: 2014.
4. Ibrohimova Sh. Badiiy asarlar tarjimasida qahramon portretining berilishi. Tarjima masalalari Ilmiy maqolalar to‘plami, №9. – Toshkent, 2012.
5. Баҳодирўғли Ё. Хоразм ўт ичида, роман, туркчадан Б. М. Шариф таржимаси. –Тошкент: Жаҳон адабиёти, 2-(3-) сон. – 2003.